MIRZO ABDULAZIM SOMIYNING "TARIXI SALOTINI MANG'ITIYA" ASARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING BUXORO AMIRLIGIGA HARBIY YURISHIGA DOIR AYRIM MA'LUMOTLAR

Durdona Mashrabaliyeva
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

"Tarixi salotini Mang'itiya" ("Mang'it sultonlarining tarixi") asari buxorolik mashhur tarixchi olim va shoir Mirzo Abduazim Somiy Bo'stoniy (1838/39-1914) qalamiga mansubdir. Bo'lg'usi tarixchi boshlang'ich ma'lumotni onayurti Bo'ston qishlog'ida (Buxoroning shimolida, undan 40 km narida) olgan. So'ngra Buxoro madrasalaridan birida o'qigan, dastlab viloyat hukmdorlari qo'lida kotib, amir Muzaffar taxtga o'tirgandan keyin uning shaxsiy kotibi va munshiy lavozimida xizmat qilgan.

Amir Abdulahad hukmronligi (1885-1910) ning so'nggida, tahminan 1898-1899-yillarda podshohlikka qarshi fikrlari uchun saroydan chetlatilib, umrining qolgan qismini kambag'allikda o'tkazgan. Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniyning amir saroyidan haydalishi sababi aniq ma'lum emas. Ko'proq, amir va uning tarafdorlarini tanqid qilgani sababli haydalgani taxmin qilinadi. Saroydan haydalganidan so'ng moddiy ahvoli yomonlashgan. Kambag'allik va jismoniy kasalliklardan ezilgan Somiy hayotining so'nggi yillarini qiyinchilik ostida o'tkazgan. 1914-yilda vafot etgan[1]. Amir Abdulahad hukmronligining so'nggi yillarida amirlik tuzumiga qarshi fikrlari va hajviy she'rlari uchun saroydan chetlashtirilgan va umrining qolgan qismini nochorlikda o'tkazgan. U yozuvchilikdan tashqari xattotlik bilanham shug'ullangan. Mirzo Somiy bir necha adabiy va tarixiy asar yozib qoldirgan. "Mir'ot ulhayol" ("Xayol ko'zgusi"), "Insho" , "Tuhfayi shohiy" (Podshohning tuhfasi), "Tarixi salotini Mang'itiya" shular jumlasidandir. Mirzo Somiy anashu davr voqea-hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, yoki guvoh bo'lgan kishilar orqali yozib olgani tarixiy asarlarini qiymatini oshiradi. 1900 – 1902-yillar orasida yozilgan "Tuhfayi shohiy" va 1907-yili yozib tamomlangan "Tarixi salotini Mang'itiya" asari Buxoro xonligining amiri Amir Muzaffar hukmronlik davr tarixiga bag'ishlangan. Biroq, mazkur tarixiy asarlar ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi. Jumladan, "Tuhfayi shohiy" to'laroq, lekin oliy hukmdor ko'klarga ko'tarib maqtash, biroz bo'rtirishlar bilan yozilgan. "Tarixi salotini Mang'itiya" esa nisbatan xolisona yozilgan. Asarning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Buxoro amirligining O'rta Osiyoning Rossiya tarafidan bosib olinishi arafasidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoli, shuningdek, Buxoro-Rossiya munosabatlari birmuncha keng yoritilgan.

"Tarixi salotini mang'itiya" asari faktlarga boyligi bilan boshqa manbalardan farq qiladi. Asar uch qismdan iborat:

1)Asarning umumiy qismi va Amir Muzaffarning hokimyatga kelishi.

2)Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasida janglar va Buxoro amirligiga qarashli ayrim hududlarni Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi.

3)1904-1905-yillardagi rus-yapon urushi, birinchi rus inqilobi, 1898-yildagi Andijon qo'zg'aloni yoritilgan[2].

Shuningdek asarda XIX asrning tarixiy voqealari, 1866-1868-yillardagi Rossiya-Buxoro urushi va Samarqandga rus qo'shinlari hujumi oldidan Oqtepa qishlog'ida bo'lgan harbiy kengashga oid ma'lumotlar o'rin olgan. Mirzo Abdulaziz Somiy boshqa zamondoshlariga qaraganda, ushbu davr

[1] https://uzpedia.uz/pedia/mirzo_abdulazim_somiy_bostoniy
[2] To'rayev Halim. Buxoro tarixi yozma manbalari. – Buxoro: Durdona, 2023. – B.123.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

voqealarini mufassalroq tasvirlaydi va jamiyatdagi turli siyosiy guruhlarning faoliyati natijalarini bayon qiladi. Jumladan, mazkur asarda 1868-yil aprelda amir Samarqand begi etib tayinlangan Sherali inoqni zulmiga qarshi xalq qo‘zg‘olonini mufassal yoritilgan. Kitobning qo‘lyozma va nusxalari ko‘p. Uni o‘zbekistonlik sharqshunos olima L.M.Epifanova tomonidan qilingan ruscha tarjimasi, so‘zboshi va zarur izohlari bilan birga, 1962-yili Moskvada chop etilgan[3].

Mana shu siyosiy davr voqealarining eng asosiychi Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga qilgan yurishlari hisoblanadi. Ruslarni harbiy harakati ikki harbiy mavsumda 1866 va 1868-yillarda o‘tkazildi. 1866-yilda olib borilgan istilochilik bosqinlari oqibatida xonlikning O‘ratepa, Jizzax va Yangiqo‘rg‘on singari hududlari Rossiya tarkibiga kiritilgan. Ikkinchi harbiy mavsumda – 1868-yil qirg‘inbarotida esa Samarqandning olishinishi, amir qo‘shinlari Samarqandda uzil-kesil tor-mor etilishi bo‘ldi.

Asarda keltirilisha: ”Rossiyaning bosqinchilik siyosati mohiyatini anglay boshlagan Buxoro amiri muftiy xo‘ja Muhammad Porso boshchiligidagi elchilarni Avg‘oniston va Hindiston orqali, yordam so‘rab Istanbulga jo‘natadi. Xoja Muhammad Porso inglizlarning Hindistondagi vakili Jon Lourensga amir Muzaffarning maktubini topshirib, Angliya qirolichasiga ham bu iltimosni yetkazishni so‘raydi. Jon Lourens xoja Muhammad bilan bo‘lgan suhbatda Buxoro amirligining 1842-yilda ingliz polkovnigi Stoddart va Konollining o‘ldirilishiga monelik qilmaganining sababini so‘raganida, Buxoro elchisi: ”bo‘lib o‘tgan voqeadan juda afsuslanaman. Ammo u vaqtda yosh edim va davlat xizmatida emasligimdan, bu narsaga ta’sir eta olmas edim. Hozirgi amir ham u vaqtda davlat ishlariga yaqinlashtirilmagan shaxzoda edi” deb javob beradi.

O‘z fuqarolarining Buxoroda o‘ldirilishini unutmagan ingliz hukumati Intanbulga kelib, u yerdagi Angliya elchisidan yordam so‘rab murojat qilgan xoja Muhammad Porsoga boshda o‘zlarining Hindistondagi vakilli Jon Lourens, keyinroq esa Intanbuldagi elchilari Genri Ellab orqali oradagi masofa uzoqligini vaj qilib, rad javobini beradi[4].

Qo‘qon xoni Xudoyorxonni so‘nggi marta taxtga chiqishiga Buxoro amiri Amir Muzaffarning yordami tufayli amalga oshdi. Mazkur ikki xonlik rus bosqinchilariga qarshi birlashish o‘rniga, o‘z manfaatlari yo‘lida tinchligini o‘yladi va oxir-oqibat ikki xonlik ham jarlikka qulaydi. Jumladan: “Tarixi salotini Mang‘itiya” asarida ruslar Qo‘qonning bir qancha yerlarini bosib olish jarayonida Amirning Xudoyorxonga yordami va Qo‘qon atrofini talon-taroj qilgani haqida quydagicha yoziladi: ”Amir Muzaffar Ho‘qandda 60 kun turib, Ho‘qand atrofiga talay dasta lashkarni yuborib, ko‘chmanchi aholini talon-taroj etdi. Ho‘qand shahrida amirning mehmondorchiligi ikki oyga dovur cho‘zilib ketishi boisdan lashkari mang‘itning zulmi-zo‘ravonligidan viloyat aholisining peshonasi devorga borib tekkach, ulardan qutilish choralarini izlashga tushdilar. Shu asnoda Mulla Alimqul qirg‘iz lashkari bilan birgalikda dabdaba-u as’asa bilan Tirak davonidan Ho‘qand sari otlandi. Shu tupayli Amir Muzaffar Ho‘qanddan ketishga qaror qildi. Sarisuv mavzeyiga to‘xtab, Xudoyorxonni Ho‘qand hokimi etib tayinladi-da unga xonlik unvonini berib va uni to‘p, xazina, qurol-yarog‘ bilan ta’minlab Ho‘qongga jo‘natdi, o‘zi esa lashkari mang‘it ila Buxoroga jo‘nadi.

Amir Samarqandga yetib kelganida gubernator Kaufman (1867-1881) do‘stlik izhor etib, Toshkentni fath etilganligi to‘g‘risida habar berib, elchi maqomini bergan allaqanday Chahor Layli to‘ra orqali xat yo‘lladi. Gubernator vakillari amir huzuriga kelib, shu maktubni topshirib, xabarni og‘zaki tarzda yetkazdi. Elchiga xona hozirlanib, qonuni davlati madaniyatiga ko‘ra hurmat-ehtirom bildirish

[3] Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – Б.242.
[4] Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитйа. – Москва, 1962. – Б.59.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

harakatida bo‘ldilar. Ammo ko‘p o‘tmay kaltafahm, mutaassib, niyati buzuq, badxulq g‘ulomlar qutqusi va g‘ij-g‘ijlashi bilan o‘rus elchisini hibsga olib, Rusiyaga nisbatan g‘ijinish-u adovat izhor etib, qarshilik ko‘rsatishni shior etib muhorabaga hozirlik ko‘ra boshladi”[5].

“Shu asnoda Buxoro madrasalaridagi mullalari-u tolibi-ilmlarning g‘alayoni sodir bo‘ldi. Buning tafsiloti quydagicha Buxoro raisi Eshonboqoxo‘ja Sadr islomga jonkuyarligi va jo‘shqin tabiati boisidan nasroniylar ila do‘stona robitalar o‘rnatilishini aslo ma’qul ko‘rmas, hamda alarga qarshi g‘azovat boshlashga astodil intilar edi. Ayrim mutaassib tolib-u ilmlar ham mazkur balandmaqom zodga qo‘shilib, qo‘zg‘otib turar edilar. Shu tariqa bir yo‘la barcha madrasalarning mullalari bosh ko‘tarib, jihod e’lon etdilar. Barcha ahli islom zimmasiga g‘azotda ishtirok etish vazifasini yukladi. U ba’zilarga yaxshi gapirib, ba’zilarga zo‘rlab, ja’miki ulamolarni fatvoni muhr ila tastiqlatishga majbur qildi. Guvohlar huzurida qonuniy rivoyat olmish mullalar-u jihodning boshqa ishtirokchilaridan iborat behisob to‘da Registonga kelib, ark darvozalari tomon yugurdilar, “Al-jihod! Al-jihod!” deb xitob etib, shovqin-suron ko‘tardilar.

Darvoza yonida turgan pospon-u ovonlar darvozalarni tanballab, odamlarni to‘xtatib qolishga urindilar, biroq nizokorlar tinchimay, arkka qarata tosh otib, panjarani sindirdilar. Bu vaqtda hibsda yotgan Ibrohim parvonachidan maslahat so‘rashdi: Nektabiat bu zod o‘tkir fikr-mulohozalar ila hammani yarashtirib, nizoni bartaraf etish lozimligini bayon ettilar. Aning maslahati ila amir Muzaffar janoblari o‘z yaqin a’yonlaridan bir necha kishini arkka yo‘lladi va bular g‘alayon yong‘inini o‘chirishga intildilar, lekin say’n-harakatlari behuda ketti. Amir Muzaffar noiloj qolib yurishga chiqishga bel bog‘ladi. U payshanba kuni jihod yo‘lida oyog‘ini jihod uzangisiga qo‘yib, ko‘p sonli lashkari, behisob g‘oziylari ila jihod yo‘lida Buxoroi sharifdan qo‘zg‘alib, yo‘lga tushdi. U butun qurol-u yarog‘, shon-shavkatini ko‘z-ko‘z qilib, uzoq yo‘l bosib, o‘z tasarrufidagi O‘rtatepaga yetti, Sayhun daryosi qirg‘og‘ida o‘rinlashmish va bir keng sahrodan iborat bo‘lmish Maydayulg‘un mavzesiga to‘xtab o‘rdu yasadi[6]”.

“General Kaufman bu voqea habarini eshitib, dushman haqida ma’lumot olish maqsadida Chernayev-to‘ra qo‘mondonligi ostida bir dasta o‘ris kishini safarbart qildi. Nasroniy qo‘shinini ilg‘or dastasi jihodchilar ko‘ziga ko‘ringach, bular daxshatdan ranglari o‘chib, bir zum o‘ylanib qoldilar. Miltiqlardan otilgan o‘qlarning kuchligina shovqini hali quloqlarga chalinarchalimas, jihodchilar to‘plar suroni ta’sirida xayol uyqusidan uyg‘onib, qochmoqni mo‘njallab qoldilar. Xullas nasroniylarning arzimas bir huruji oqibatida jihodga otlangan ja’miki lashkar-u fuqarolari qurol-yarog‘lari, lash-lushlarini tashlab, tumtaraqay qochib qoldilar. Ilojsiz qolmish Janobi oliylar otga minib, Jizzax sari yo‘lga tushdilar.

Fasli bahor boshlarida gubernator Chernayev to‘raning ikki ming nafar askar ila Jizzaxga jo‘natib, buxoroliklar bilan do‘stlik va hamjihatlik o‘rnatishga harakat qildi. Chernayev Jizzaxdan bir farsang masofa narida Konisangin mavzeyiga kelib tushdi va qamal qilingan amirlarga xat jo‘natib, elchini qo‘yib yuborishni so‘radi. Biroq xatiga qo‘rs-qo‘pol javob oldi, sulh tuzish umidi puchga chiqdi. Chernayev qo‘shin va zambaraklari bilan Konisangindan jo‘nab, Rabot darvozasiga chiqdi”. Chernayev amirlarga qon to‘kilishini xohlamasligi, hibsga olingan elchi qo‘yib yuborishi va bu O‘russiyaga bo‘lgan hurmatsizlik ekanligini takidlab, qirg‘inbarotni oldini olishga chaqirdi. Biroq kaltafahm amirlar bunga quloq solmay takabburlik ila chetga chiqmadilar.

[5] Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитйа. –Масква, 1962. – Б.60.
[6] Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитйа. –Москва, 1962. – Б.61.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. To'rayev Halim. Buxoro tarixi yozma manbalari. – Buxoro: Durdona, 2023. – B.123.
2. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – Б.242.
3. Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитйа. – Москва, 1962. – Б.59.
4. Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитйа. –Масква, 1962. – Б.60.
5. Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитйа. –Москва, 1962. – Б.61.
6. Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитйа. – Москва, 1962. – Б.65.
7. Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитйа. – Масква, 1962. – Б.66.
8. Мирза Абдулазим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангитйа. – Масква, 1962. – Б.67.
9. Зияева Д. Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. – Т.: Sharq, 2012. – Б.161.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.